

QASHQADARYO VILOATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-fevral*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75-)221-44-28**

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 6840 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 17 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6823 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3371,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 109,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 154,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 5,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2752,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 464,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 16,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	3 371,3	109,0
Qarshi sh.	926,6	113,8
Shahrisabz sh.	274,5	106,6
G'uzor	133,9	109,5
Dehqonobod	109,1	104,4
Qamashi	227,6	105,1
Qarshi	126,0	106,2
Koson	273,3	106,6
Kitob	174,1	106,6
Mirishkor	110,0	105,0
Muborak	100,4	106,9
Nishon	123,9	105,0
Kasbi	136,3	107,3
Ko'kdala	111,1	114,2
Chiroqchi	251,7	107,6
Shahrisabiz	121,3	121,6
Yakkabog'	171,4	104,4


2024- yilning yanvar-fevral oylarida 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (121,6 %), Ko'kdala (114,2 %), Qarshi shahri (113,8 %), G'uzor (109,5 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-fevral)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

2023- yil va 2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati **109,0** % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 27,5 % bilan 926,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 3,0 % bilan 100,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 2752,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023– yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 8,0 % ga oshdi. Vi-loyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,6 % bo'ldi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 105,7 % ga ko'paydi va 154,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Nishon (99,2 %), Qamashi va Mirishkor tumanlari (99,1 %), Dehqonobod (99,0 %) tumani yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz (16,7 %), Muborak tumani (9,5%), Qarshi shahri (7,4%), Ko'kdala va Koson tumanlari (5,4 %) tumanlarida kuzatildi.

4,6 %

95,4 %




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*




2024- yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 957,3 ming. so'mni (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 106,7 %) tashkil etdi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-fevral), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	464,6	116,8
Qarshi sh.	31,6	117,4
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	8,9	117,2
G'uzor	31,7	116,1
Dehqonobod	18,4	116,5
Qamashi	35,9	117,3
Qarshi	10,8	117,9
Koson	47,4	117,4
Kitob	30,1	118,0
Mirishkor	7,3	116,2
Muborak	27,1	116,2
Nishon	20,4	117,4
Kasbi	12,6	116,5
Ko'kdala	42,5	117,2
Chiroqchi	98,3	116,1
Shahrisabz	21,5	116,6
Yakkabog'	20,0	116,7


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-fevral)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-fevral)



Viloyat bo'yicha 2024- yil-ning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 464,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yil-ning yanvar- fevral oylariga nisbatan 116,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 113,1 mlrd. so'mni (125,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 121,5 mlrd so'mni tashkil etdi (136,0 %).













2024- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 224,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (124,2 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>124,2 mlrd. so'm</p>  <p>55,4 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>32,5 mlrd. so'm</p>  <p>16,4 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>10,1 mlrd. so'm</p>  <p>4,5 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>15,3 mlrd. so'm</p>  <p>6,8 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>6,3 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>5,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,6 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>11,5 mlrd. so'm</p>  <p>5,1 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>6,3 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>4,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>4,1 mlrd. so'm</p> <p>1,8 %</p>

2024- yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 240,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 160,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 65,7 mlrd. so'mni, otlar – 9,9 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>105,9 mlrd. so'm</p>  <p>44,0 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>40,8 mlrd. so'm</p>  <p>19,0 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>13,5 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>38,2 mlrd. so'm</p>  <p>15,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>9,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>27,5 mlrd. so'm</p>  <p>11,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1429 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1428 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	104,5	108,8
Qarshi sh.	32,9	104,9
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	6,9	104,9
G'uzor	5,0	106,4
Dehqonobod	2,7	105,4
Qamashi	1,9	110,3
Qarshi	3,8	110,2
Koson	3,5	106,9
Kitob	10,0	107,0
Mirishkor	1,3	108,9
Muborak	12,5	130,7
Nishon	9,1	107,5
Kasbi	2,9	107,2
Ko'kdala	1,5	107,8
Chiroqchi	4,1	107,6
Shahrisabz	2,1	106,4
Yakkabog'	4,3	107,9

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 104,5 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	523,3	100,0
Qarshi sh.	469,9	89,8
Shahrisabz sh.	3,8	0,7
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	0,6	0,1
Dehqonobod	0,9	0,2
Qamashi	0,3	0,1
Qarshi	35,2	6,7
Koson	0,8	0,2
Kitob	1,9	0,4
Mirishkor	1,7	0,3
Muborak	1,6	0,3
Nishon	1,2	0,2
Kasbi	1,2	0,2
Ko'kdala	0,5	0,1
Chiroqchi	2,6	0,5
Shahrisabz	0,6	0,1
Yakkabog'	0,5	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (469,9 mlrd. so'm), Qarshi (35,2 mlrd. so'm) va Shahrisabz shahri (3,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 523,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 foizga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 218,2 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 48,7 foizga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 305,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 3,9 m.) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 916,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi

6,3 %

57,5 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

93,7 %

858,8 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 858,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 118,4 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,7 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2137 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 14 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2123 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar G‘uzor (135,0 %) va Shahrisabz tumanlari (126,8 %), Shahrisabz shahri (125,3 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha	916,3	109,9
Qarshi sh.	419,6	109,0
Shahrisabz sh.	92,3	125,3
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	34,1	135,0
Dehqonobod	4,5	112,4
Qamashi	22,0	122,5
Qarshi	69,3	111,5
Koson	69,1	107,2
Kitob	53,0	111,6
Mirishkor	28,5	116,3
Muborak	15,0	108,7
Nishon	18,0	113,8
Kasbi	8,8	30,8
Ko‘kdala	3,5	110,2
Chiroqchi	32,6	109,7
Shahrisabz	25,6	126,8
Yakkabog‘	20,4	115,2